INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINI UMUMINSONIY HURMAT QILISH TAMOYILLARI.

Saparova Fotima Mirzaraxmon qizi

Toshkent davlat transport universiteti yurisprudensiya yo'nalishi "Xalqaro ommaviy huquq" kafedrasi 2-bosqich Yu-13 guruh talabasi.

Kasimova Asal Arslanovna

Toshkent davlat transport universiteti Xalqaro ommaviy huquq kafedrasi yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada inson huquq va erkinliklarini umuminsoniy hurmat qilish tamoyillarining mazmun-mohiyati, xalqaro huquq tizimidagi o'rni hamda demokratik jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro va milliy mexanizmlari, ularni ta'minlashda davlatlarning mas'uliyati hamda zamonaviy globallashuv sharoitida ushbu tamoyillarning dolzarbligi yoritib beriladi. Inson huquqlarini himoya qilishda davlatning ichki siyosati va universal mehanizmlari va rivojlangan davlatlarda inson huquqlariga bolgan munosabat, inson huquqlarini himoya qilish boyicha shartnomaviy orgonlar yoritilib beriladi. Maqolada inson qadri, erkinlik va tenglik g'oyalarining huquqiy asoslari ilmiy nuqtai nazardan bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *inson huquqlari, erkinlik, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, umuminsoniy qadriyatlar, xalqaro huquq, demokratiya, tenglik, inson qadr-qimmati, huquqiy himoya, BMT, fuqarolik jamiyati.*

Аннотация: *В данной статье анализируются сущность и содержание принципов всеобщего уважения прав и свобод человека, их место в системе международного права, а также значение в развитии демократического общества. Также освещаются международные и национальные механизмы защиты прав человека, ответственность*

государств за их обеспечение, актуальность данных принципов в условиях современной глобализации. Рассматриваются внутренняя политика государства и универсальные механизмы защиты прав человека, отношение к правам человека в развитых государствах, а также деятельность договорных органов по защите прав человека. В статье с научно-правовой точки зрения раскрываются идеи человеческого достоинства, свободы и равенства.

Ключевые слова: *права человека, свобода, Всеобщая декларация прав человека, Международный пакт о гражданских и политических правах, общечеловеческие ценности, международное право, демократия, равенство, человеческое достоинство, правовая защита, ООН, гражданское общество.*

Abstract*: This article analyzes the essence and significance of the principles of universal respect for human rights and freedoms, their role in the system of international law, and their importance in the development of a democratic society. It also highlights international and national mechanisms for the protection of human rights, the responsibility of states in ensuring these rights, and the relevance of these principles in the context of modern globalization. The article examines the domestic policy of states and universal mechanisms for the protection of human rights, attitudes toward human rights in developed countries, and treaty bodies responsible for the protection of human rights. The legal foundations of human dignity, freedom, and equality are scientifically and legally explained in the article.*

Keywords: *human rights, freedom, Universal Declaration of Human Rights, International Covenant on Civil and Political Rights, universal values, international law, democracy, equality, human dignity, legal protection, United Nations, civil society.*

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlari va erkinliklarini

himoya qilish, mamlakatda ijtimoiy adolatni o‘rnatish, ijtimoiy barqarorlikni, tenglikni himoya qilish, demokratik, erkinlik, tamoyillariga amal qilib, bosh g’oya inson qadriyatlarini hurmat qilish va inson kapitalini rivojlantirish maqsadida shuningdek, tarixiy bosqichlarimiz, ota-bobolarimiz qoldirgan ilmiy, ma’naviy me’rosiga tayanib, jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘rni, asosan aholi munosib hayot kechirishiga asoslangan holda yangitdan qabul qilindi. Davlatlardagi fuqarolarga bo‘lgan munosabatlar va ularning belgilab qo‘yilgan huquq va erkinliklari hozirda deyarlik barcha rivojlangan, suveren mamlakatlarda kafolatlangan. Ko‘rishimiz mumkinki, hozirda ayrim davlatlarda inson huquqlariga bo‘lgan ba’zi ziddiyatli vaziyatlar inson huquq va erkinliklariga bo‘lgan kafolatning buzilishiga sabab bo’lmoqda. «Inson huquqlari va erkinliklarini himoyalash — o‘z ichiga huquq normasini, sud himoyasini hamda tashkiliy, iqtisodiy shuningdek boshqa harakatlarini oluvchi, inson huquqlarini ro‘yabga chiqarishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi hisoblanadi. Shuni qayd etish joizki inson huquqlari va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish yo‘llaridan biri inson hamda fuqarolarning o‘z huquqlarini himoya qilishlari deb qaraladi. Inson va fuqarolarning qonuniy huquqlari buzilgan taqdirda, ular protsessual qonunchilik qoidalariga ko‘ra, ularga nisbatan qilingan g‘ayriqonuniy harakatlar ustidan ma’muriy yoki sud tartibida shikoyat keltirishlari mumkinligi belgilangan»[1] Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquqning asosiy manbalari 1948-yilda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yilda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g’risidagi xalqaro pakt, 1966-yilda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g’risidagi xalqaro pakt va uning fakultativ bayonnomasining qabul qilinishi, xalqaro huquqning mazkur tarmog‘ini navbatdagi

---

1 Oychiyev, N., ed (2009). "Inson huquqlari va erkinliklarini himoyalash". *O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi*.

Toshkent: „Adolat“ nashriyoti. p. 216.

kodifikatsiyalashtirish va tizimlashtirish uchun asos hisoblanadi. Mazkur aktlar Inson huquqlari to'g'risidagi Xalqaro Bill deb nomlanishi bejizga emas. Qadimgi davr, bunda inson huquqlari bo'lmagan lekin keyinchalik shakillanishiga olib keluvchi falsafiy mezonlar bo'lgan. Masalan Konfutsiy ta'limoti va Monu qonunlari hamda Aflotun va Aristotel kabi faylasuflar inson qadr-qimmati, ma'naviyati va adolat tamoyillari borasida o'z fikrlarini aytib o'tishgan. O'rta asrlarda barcha huquqalar asosan diniy ta'limotlar orqali ifodalandi va unda axloq odob xarakterlari asosida tadbiq etilgan. Yangi davrga kelib aynan inson huquqlari murtafakkirlar tomonidan asoslab berildi. Bu davrda bir nechta muhum hujjatlar qabul qilingan. Ulardan inson huquqlariga tegishlisi 1789 yilda qabul qilingan fransiya inson va fuqarolarning huquqlari deklaratsiyasi. XX asrda bo'lib o'tgan ikkinchi jahon urushi inson huquqlarini hurmat qilish zarurati hamma narsadan ustun ekanligini ko'rsatib berdi. 1945-yilda qabul qilingan BMT va 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va 1966-yilda qabul qilingan ikki asosiy xalqaro paktning qabul qilinishi bunga yaqqol misoldir. Mustaqillikka erishganimizdan keyin inson huquqlari davlatning bosh qomusi hisoblangan Konstitutsiya darajasida e'tirof etildi hamda keyinchalik inson huquqlari bo'yicha Ombudsman, Milliy markaz tashkil etilib, davlatimizda olib borilayotgan bir qancha islohotlar ham inson foydasi uchun amalga oshirilmoqda.

Shartli ravishda inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin: huquqiy kafolatlar, institutsional kafolatlar, texnik kafolatlar, infratuzilmaviy kafolatlar.

Huquqiy kafolatlarga insonning ajralmas (tabiiy) va pozitiv huquqlarining konstitutsiya va qonunlar bilan aniq va ravshan tarzda mustahkamlab qo'yilishini tushunish lozim. Zero, huquqning mavjudligini qonunlarda mustahkamlash ham huquqlar kafolatining ilk ko'rinishidir. Institutsional kafolatlarga qonunchilikda mustahkamlangan huquqlarni amalga oshirishda sharoit yaratishga mas'ul

bo‘lgan tegishli ommaviy boshqaruv organlarining qonunlar asosida yaratilganligini tushunish mumkin. Masalan, Ichki ishlar vazirligi kabi davlat organi yaratilganligining boisi insonning yashash, harakatlanish, mulkka ega bo‘lish va uni erkin tasarruf etish kabi ajralmas huquqlarini amalda ro‘yobga chiqarishga sharoit yaratish hisoblanadi.

Texnik kafolatlarga insonning qonunlarda mustahkamlangan huquqlarini tegishli institutlar (vazirlik va idoralar) tomonidan amalga oshirishini tezlashtirish va qulaylashtirishga zamin yaratuvchi turli tadbirlar majmuasini tushunish mumkin. Masalan, yo‘l harakati ishtirokchilarining yo‘llarda xavfsiz harakatlanishi uchun yo‘l belgilarining o‘rnatilishi, kechasi yoritish uchun ko‘cha chiroqlarining o‘rnatilishi, tekis va xavfsiz yo‘llarning yaratilganligi kabi tadbirlarni tushunish mumkin.

Infratuzilmaviy kafolatlar qatoriga insonning qulay sharoitlarda yashashi va faoliyat yuritishi uchun turli ne’matlarning yaratilganligini tushunish lozim. Masalan, tabiiy gaz, toza ichimlik suvi, elektr energiyasi va zamonaviy davrda internetga ulanish imkoniyatlari shular jumlasidandir.

BMTda qabul qilingan tasnifga ko‘ra hozirda lO ta shartnomaviy organ faoliyat yuritadi - Inson huquqlari bo‘yicha qo‘mita, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha qo‘mita, Irqiy kamsitishlarni bartaraf etish bo‘yicha qo‘mita, Qiynoqlarga qarshi qo‘mita, Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mita, Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishni bartaraf etish bo‘yicha qo‘mita, Barcha mehnatkash-migrantlar va ularning oila a’zolari huquqini himoya qilish bo‘yicha qo‘mita, Nogironlar huquqlari bo‘yicha qo‘mita. Zo‘rlik bilan yo‘qolishlar bo‘yicha qo‘mita va Qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha quyi qo‘mita. Inson huquqlari bo‘yicha shartnomaviy organlar faoliyatida hozirda to‘rtta asosiy yo‘nalishni ajratib ko‘rsatish mumkin - tegishli xalqaro shartnoma doirasida davlat tomonidan o’z majburiyatlarining bajarilishi tahlili, shikoyatlarni ko‘rib chiqish, umumiy tartibda mulohazalarni tayyorlash va tekshiruv o‘tkazish.

Inson huquqlarini himoya qilishda eng muhim omillardan biri davlatning milliy qonunchilik siyosatidir. Aytib o‘tganimizdek har bir davlatning asosi hisoblangan qonunlar tizimida inson huquqlari va ularni himoya qilish kafolatlari belgilab qo‘yiladi va shu asosda turli xil islohatlar amalga ashiriladi. Mana shu qonunchilikka to‘xtalsak; Deyarlik barcha moddalari inson foydasiga asoslangan Konstitutsiyaviy huquqlaridir. Unda siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy, shaxsiy huquqlari belgilab qo‘yilgan. Inson huquqlari, ularning davlat tomondan kafolatlari, erkinliklari va burchlari to‘liq yoritib berilgan bu Konstitutsiyaning ikkinchi bo‘limi eng katta bo‘limi sifatida qayd etilgan. Unga ko‘ra davlatda inson huquqlari “eng oliy qadriyat” sifatida e’tirof etiladi hamda tan olinadi. Davlat ularni amalga oshirishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishi zarur hisoblanadi. Bu bizda Konstitutsiyada belgilangan huquqlariga to‘xtalgan bo‘lsak endi qonunchilik tizimimiz va ularga asoslanib ish yuritayotgan institutlarda olib borilayotgan ishlarga to‘xtalsak. Mamlakatda barcha huquq tizimlari Konstitutsiyaga asosan ish yuritadi, shunday ekan inson huquqlarini amalda ta’minlash masalalari ham aynan mana shuday qonunchilik tizimlari bilan uyg’unlashgan holda qo‘llaniladi ya’ni inson huquqlari faqat nizomda emas balki, amaliyotda ham keng tadbiq etilmoqda. Yevropa Kengashi 1949-yilda o‘nta G’arbiy Yevropa davlatlari tomonidan ta’sis etilgan. Bugungi kunda unga aksariyat Yevropa mamlakatlari a’zolar. Uning asosiy vazifasi ozodlik, demokratiya, inson huquqlarini tan olish va huquq ustuvorligiga asoslangan yagona Yevropa hamjamiyatini tashkil etishdan iborat. Mazkur maqsadlar yo’lida Kengash yagona huquqni qo‘llash amaliyotini yaratib, ishtirokchi davlatlar uchun umumiy me’yorlarni ishlab chiqadi. Yevropa Kengashining inson huquqlari sohasidagi faoliyati Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g’risidagi Yevropa konvensiyasiga kiritilgan kafolatlarni kengayiirish va mustahkamlash, undagi huquqlar ro‘yxatini takomillashtirish, sud jarayonini tezlashtirish va boshqalarga yo‘naltirilgan. Yevropa Kengashi tashkil etilgach va

uning asosiy nazorat mexanizmlari - Yevropa inson huquqlari komissiyasi va Yevropa inson huquqlari sudi (1998-yil noyabridan - yagona Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi) faoliyati, Yevropa mamlakatlari milliy qonunchiligida Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya asosiy me'yorlarining tasdiq topishi, shuningdek Yevropada xavfsizlik va hamkorlik majlisi, Yevropada inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan boshqa tashkilotlar faoliyati natijasi orqali, "Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha Yevropa standartlari" va "Inson huquqlarini himoya qilishning Yevropacha tizimi" tushunchalari yuzaga kelganligi haqida so'zlash mumkin. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya 1950-yil 4-noyabrda qabul qilingan. Konvensiya shartnoma shaklida bo'lib, unga ko'ra Yevropa Kengashiga a'zo davlatlar ularning yurisdiksiyalari ostida bo'lgan barcha shaxslarning ba'zi asosiy inson huquqlarini kafolatlash majburiyatini o'z zimmalariga oldilar. U o'zidagi kafolatlanadigan huquqlar ro'yxati bilangina emas, balki ko'proq himoya qilish mexanizmlari bilan ahamiyatlidir. Bu mexanizmlar Strasburgda Konvensiyada ko'zda tutilgan majburiyatlarning ehtimoliy buzilishini tekshirish va bajarilishini ta'minlash uchun tashkil etilgan. Konvensiyaning asosiy roli eng rivojlangan himoya vositalari yordamida har bir shaxsga uning huquqlariga rioya etilishi kafolatini berishdan iborat. Hozirda Konvensiyani ratifikatsiya qilish, 34-moddaga muvofiq xususiy shaxslarning yakka tartibda arizalar topshirish huquqlarini tan olish va 19-moddaga muvofiq Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi yurisdiksiyasining amalda bo'lishi — bular Yevropa Kengashiga a'zolikning majburiy shartlaridir. Yevropa Kengashi tomonidan ushbu Konvensiya bo'yicha qabul qilinadigan bayonnomalar davlat uchun u ratifikatsiya qilinganidan keyin majburiy kuchga kiradi. Kengash Konvensiyaning amalga oshirilishi ustidan ham kafolatlanadigan huquqlar ro'yxatini kengaytirish, ham amaldagi jarayonlarni takomillashtirish yo'li bilan doimiy nazoratni amalga oshiradi. Konvensiya Yevropa Kengashi a'zo

mamlakatlaridan fuqarolar va boshqa shaxslarning, agar ularning huquqlari milliy darajada buzilayotgan bo‘lsa, Konvensiyaning nazorat organlariga shikoyat bilan yakka tartibda murojaat qilish huquqlarini belgilab qo‘ygan. Konvensiyaga Bayonnoma bilan kiritilgan o‘zgartirishlarga muvofiq, Yevropa sudi “Ushbu Konvensiyada yoki unga bayonnomalarda e’tirof etilgan huquqlari Oliy Shartnoma Tomonlaridan biri tomonidan buzilganligi qurboni bo‘lganliklarini ta’kidlovchi istalgan jismoniy shaxs, istalgan nohukumat tashkiloti yoki har qanday xususiy shaxslar guruhi tomonidan shikoyatlarni qabul qilishi mumkin. Oliy Shartnoma Tomonlari bu huquqning samarali amalga oshirilishiga hech qanday to‘sqinlik qilmaslik majburiyatini zimmalariga oladi. Konvensiya unga bayonnomalar qabul qilish yo‘li bilan muntazam ravishda to’ldirilgan va o‘zgartirilgan. Umumiy hisobda hozirgacha Konvensiyaga 14ta bayonnoma qabul qilingan, ular yangi huquq va ozodliklami tan oladi, taomil masalalarini ko‘taradi va inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudigacha cheklangan konsultatsiya vakolatini beradi. 1961-yilgi Yevropa ijtimoiy xartiyasi 1965-yil 26- fevralda kuchga kirdi. U 19ta asosiy huquqlarni va Yevropa Kengashi a’zo davlatlari yurisdiksiyasi ostidagi barcha shaxslar uchun huquqlar rioya etilishining ijtimoiy-huquqiy kafolatlarini o’z ichiga oladi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib, mualliflik huquqiga tayangan holda amalga oshirilishi kerak bolgan bkir nechta chora tadbirlarni ham ko’rib chiqamiz.

I. Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda va turli xil internet platformalarida inson huquqlari bo‘yicha targ’ibot loyihalarini yo‘lga qo‘yish va ularni targ’ib qilish.

II. Mahallalarda va aholi yashaydigan joylarda aholi uchun bepul yuridik maslahat markazlarini ochish. Bu chekka qishloqlarda yashaydigan aholida o‘z huquqlarini bilmaydigan aholi uchun eng samarali yo‘l bo‘ladi qaysiki o‘z

huquqlari buzulgan paytda qaysi joyga murojaat qilish qiyinchilik tug’dirmasligi uchun.